

14-ma'ruza. Tog' qutqaruv qismlari jabrlanganlarni qutqarish, halokatlarni bartaraf qilishdagi faoliyati

Reja

1. Qutqaruv xizmatlari, qutqaruv tuzilmalari va qutqaruvchilar faoliyatining asosiy prinsplari.
2. Qutqaruv xizmatlari va qutqaruv tuzilmalari
3. Qutqaruv xizmatlari va qutqaruv tuzilmalarining faoliyati
4. Favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish ishlariga rahbarlik qilish

1. Qutqaruv xizmatlari, qutqaruv tuzilmalari va qutqaruvchilar faoliyatining asosiy prinsplari

Qutqaruv xizmatlari, qutqaruv tuzilmalari va qutqaruvchilar faoliyatining asosiy prinsplari quyidagilardan iborat:

- qonuniylik;
- insonparvarlik va mehr-muruvvat;
- favqulodda vaziyatlar ro'y berganda odamlarning hayotini asrab qolish va sog'lig'ini saqlash, atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish vazifalarining ustuvorligi;
- favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish ishlarini olib borishda asosli tavakkalchilik va xavfsizlikning ta'minlashi;
- qutqaruv xizmatlari, qutqaruv tuzilmalari va qutqaruvchilarga yakka-boshchilik asosida rahbarlik qilish;
- favqulodda vaziyatlarda tezkor harakat qilishga hamda ularni bartaraf etish ishlarini olib borishga qutqaruv xizmatlari, qutqaruv tuzilmalari va qutqaruvchilarning doimiy shayligi.

Qutqaruv xizmatlari va qutqaruv tuzilmalarining asosiy vazifalari

Qutqaruv xizmatlari va tuzilmalarining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- o'z boshqaruv organlari, kuchlari va qutqaruv vositalarining favqulodda vaziyatlarda tezkor harakat qilishga hamda ularni bartaraf etish ishlarini olib borishga doimiy shay holatda saqlab turish;
- favqulodda vaziyatlarning oldini olish va ularni bartaraf etish bo'yicha harakatlar rejalarini ishlab chiqishda ishtrok etish;
- odamlarning xayotini asrab qolish va sog'lig'ini saqlash yuzasidan kechiktirib bo'lmaydigan ishlarni amalga oshirish, shuningdek favqulodda vaziyatlarning oldini olish va ularni bartaraf etish;
- favqulodda vaziyatlar sharoitida yuridik va jismoniy shaxslarning mol-mulkini hamda atrof tabiiy muxitni muhofaza qilish ishlarini olib borish;
- aholini va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish soxasidagi bilimlarni targ'ib qilish, aholini hamda korxonalar, muassasalar va tashkilotlar (bundan buyon matnda tashkilotlar deb yuritiladi) xodimlarini favqulodda vaziyatlar sharoitida harakat qilishga tayyorlashda ishtirok etish.

2. Qutqaruv xizmatlari va qutqaruv tuzilmalari

Qutqaruv xizmatlari va qutqaruv tuzilmalarini tashkil etish

Qutqaruv xizmatlari va qutqaruv tuzilmalari quyidagi asoslarda tashkil etilishi mumkin:

Doimiy shtat asosida – qutqaruv xizmatlari va professional qutqaruv tuzilmalari;

Shtatsiz asosda – shtatdan tashqari qutqaruv tuzilmalari.

Qutqaruv xizmatlari va professional qutqaruv tuzilmalari:

-respublika miqiyosida – O'zbekiston Respublikasining Prezidenti yoki O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining qaroriga binoan;

-hududlar miqiyosida – Qoraqolpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashining, viloyatlar, Toshkent Shaxri, tumanlar va shaharlar hokimlarining qaroriga binonan;

-ob'yektlar miqiyosida – qonun hujjatlarida nazarda tutilgan faolyatni amalga oshirish uchun o'z qutqaruv tuzilmalari bo'lish shartligi nazarda tutilgan tashkilotlarning qaroriga binoan tashkil etiladi.

Shtatdan tashqari qutqaruv tuzilmalari tashkilotlar tomonidan o'z xodimlari orasida belgilangan tartibda tashkil etiladi.

Jamoat qutqaruv tuzilmalari ustavida belgilangan vazifasi favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish ishlarini olib borishda ishtirok etishdan iborat bo'lgan jamoat birlashmalari tomonidan jamoatchilik asosida tashkil etiladi.

Qutqaruv xizmatlari va qutqaruv tuzilmalarining tarkibi, tuzilishi

Qutqaruv xizmatlari va qutqaruv tuzilmalarining tarkibi, tuzilishi tegishincha O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasi, davlat boshqaruv organlari, Qoraqolpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, maxalliy davlat hokimiyati organlari hamda tashkilotlar, shu jumladan jamoat birlashmalari tomonidan favqulodda vaziyatlarning oldini olish va ularni bartaraf etish bo'yicha o'z zimmalariga yuklatilgan vazifalardan kelib chiqqan holda belgilanadi.

Qutqaruv xizmatlari va qutqaruv tuzilmalari safini to'ldirish

Qutqaruv xizmatlari va qutqaruv tuzilmalarining safini to'ldirish ixtiyoriylik asosida amalga oshiriladi. Davlat boshqaruv organlari, tashkilotlar, shu jumladan jamoat birlashmalari qutqaruvchi lavozimiga qabul qilish shartlarini belgilaydi.

Qutqaruv xizmatlariga, professional qutqaruv tuzilmalariga qutqaruvchi lavozimiga, shuningdek qutqaruvchilarni tayyorlovchi ta'lim muassasalarida o'qishga umumiy o'rta ma'lumotli, tibbiy tekshiruvda qutqaruvchilik ishiga yaroqli deb topilgan hamda kasbiy, jismoniy tayyorgarligi darajasini va ma'naviy – ruhiy fazilatlariga ko'ra belgilangan talablarga mos keladiga O'zbekiston Respublikasi fuqorolari qabul qilinadi.

O'n sakkiz yoshga to'lgan, qutqaruvchilarni tayyorlash dasturi bo'yicha ta'lim olgan hamda favqulodda vaziyatlarning oldini olish va ularni bartaraf etish ishlarini olib borish uchun belgilangan tartibda attestatsiyadan o'tgan O'zbekiston Respublikasi fuqorolariga qutqaruv xizmatlari va professional qutqaruv tuzilmalarida qutqaruvchi vazifalarini bajarishga ruhsat beradi.

3.Qutqaruv xizmatlari va qutqaruv tuzilmalarining faoliyati

Qutqaruv xizmatlari va qutqaruv tuzilmalari o'z faolyatida ushbu Qonunga hamda boshqa qonun hujjatlariga amal qiladi.

Qutqaruv xizmatlarining, professional qutqaruv tuzilmalarining rahbari tomonidan o'z vakolatlari doirasida qabul qilinadigan qarorlar shu xizmatlar va tuzilmalarning barcha hodimlari, shuningdek favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish ishlarini olib borishga jalb etilgan shtatdan tashqari qutqaruv tuzilmalari va jamoat qutqaruv tuzilmalarining hodimlari bajarishi uchun majburiydir.

Qutqaruv xizmatlari va professional qutqaruv tuzilmalari ob'yektlari hamda hududlarga xizmat ko'rsatish bo'yicha o'z faolyatini shartnoma asosida amalga oshirish mumkin.

Favqulodda vaziyatlar taxdidi bo'lganda va ular ro'y berganda hamda ularning oqibatlarini bartaraf etish chog'ida qutqaruv xizmatlari va professional qutqaruv tuzilmalaridan jamoaga doir mehnat nizolarini hal etish vositasi sifatida qutqaruv ishlarini tugatishga yo'l qo'yilmaydi.

Shtatdan tashqari qutqaruv tuzilmalari tashkil etilgan tashkilotlarning rahbarlari qutqaruvchilarni qutqaruv ishlari olib borishning maxsus ko'nikmalariga o'rgatish bo'yicha muntazam mashg'ulotlar uyushtiradi hamda ularni maxsus aslaxa – anjomlar bilan ta'minlaydi.

Qutqaruv xizmatlari va qutqaruv tuzilmalarining favqulodda vaziyatlarda tezkor harakatlar qilishda hamda favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish ishlarini olib borishga shayligi uchun davlat boshqaruv organlari, mahalliy davlat xokimiyati organlari va tashkilotlarini, shu jumladan jamoat birlashmalarining rahbarlari ma'suldir.

Qutqaruv xizmatlari va professional qutqaruv tuzilmalarini tezkor transporti maxsus tovush va yoritish signal asboblari bilan ta'minlangan, shuningdek belgilangan namunadagi ranglarga bo'yalgan bo'lishi shart.

Qutqaruv xizmatlari va qutqaruv tuzilmalarini favqulodda vaziyatlarni bartaraf etishga jalb etish

Qutqaruv xizmatlari va qutqaruv tuzilmalarini favqulodda vaziyatlarni bartaraf etishga jalb qilish:

xizmat ko'rsatilayotgan obyektlar va hududlarda favqulodda vaziyatlarning oldini olish hamda ularni bartaraf etishga doir harakatlar rejasiga muvofiq;

favqulodda vaziyatlar ro'y bergan va ularning ko'lami kengaya boshlagan taqdirda belgilangan tartibda;

mazkur qutqaruv xizmatlari va qutqaruv tuzilmalari faolyatiga rahbarlik qilayotgan yoki buning uchun qonun hujjatlarida belgilangan vakolatlariga ega bo'lgan davlat boshqaruvi organlari, mahalliy davlat xokimiyati organlari, tashkilotlar, shu jumladan jamoat birlashmalari mansabdor shaxslarning qaroriga binoan amalga oshiriladi.

Qutqaruv xizmatlari va qutqaruv tuzilmalarini favqulodda vaziyatlarni bartaraf etishga davlat boshqaruv organlari, mahalliy davlat xokimiyati organlari, tashkilotlar, shu jumladan jamoat birlashmalarining shunga vakolatli mansabdor shaxslari qaroriga binoan jalb qilish bilan birga O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasi tomonidan belgilangan obyektlar va hududlarning favqulodda vaziyatlardan himoyalanganlik darajasini ta'minlaydiga chora – tadbirlar ko'rilishi shart.

Qutqaruv xizmatlari va qutqaruv tuzilmalari favqulodda vaziyatlarni bartaraf etishga jalb qilish tartibi qonun hujjatlarida belgilanadi.

Qutqaruv xizmatlari va professional qutqaruv tuzilmalarini O'zbekiston Respublikasi hududidan tashqaridagi favqulodda vaziyatlarini bartaraf etishga jalb qilish O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qaroriga binoan amalga oshiriladi.

4.Favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish ishlariga rahbarlik qilish

Favqulodda vaziyatlarni bartaraf etishga jalb qilingan barcha kuchlar va vositalarga rahbarlik qilish hamda ularning hamkorlikda harakat qilishini tashkil etish favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish ishlarining rahbarlari tomonidan amalga oshiriladi.

Favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish ishlari rahbarning vakolatlari:

-transchegaraviy va respublika miqyosidagi favqulodda vaziyatlarda – O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasi tomonidan;

-mahalliy miqyosdagi favqulodda vaziyatlarda – mahalliy davlat xokimiyati organlari tomonidan;

-lokal favqulodda vaziyatlarda – davlat boshqaruv organlari, tashkilotlar tomonidan belgilanadi.

Favqulodda vaziyatlar zonasiga birinchi bo'lib yetib kelgan qutqaruv xizmatlari va qutqaruv tuzilmalarining rahbarlari favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish ishlari rahbarlarining vakolatlarini o'z zimmalariga oladi hamda bu vakolatlarni favqulodda vaziyatlarning oldini olish va ularni bartaraf etish bo'yicha harakatlar rejalarida belgilangan yoki favqulodda vaziyatlarda muhofaza qilish bo'yicha maxsus vakolatli davlat boshqaruv organi, boshqa davlat boshqaruv organlari, mahalliy davlat xokimiyati organlari va tashkilotlar tomonidan tayinlangan favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish ishlari rahbarlari yetib kelguniga qadar bajaradi.

Favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish ishlarini rahbarlarini favqulodda vaziyatlarni bartaraf etishga qaratilgan qarorlari, agar qonun hujjatlarida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, favqulodda vaziyatlar zonalaridagi barcha yuridik va jismoniy shaxslar uchun majburiydir.

Favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish ishlari rahbarlarining faolyatiga ularni vazifalarini bajarishdan belgilangan tartibda chetlashtirmasdan va rahbarlikni o'z zimmasiga olmasdan yoki boshqa mansabdor shaxsni tayinlamasdan turib aralashishga hech kim haqli emas.

Odamlarning hayoti va sog'ligiga bevosita tahdid bo'lganda favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish ishlarining rahbarlari mustaqil ravishda quyidagi qarorlarni qabul qilishga haqlidir:

evakuatsiya tadbirlarini o'tkazish to'g'risida;

favqulodda vaziyatlar zonalaridagi obyektlarda va hududlarda qutqaruv ishlarini olib borish to'g'risida;

favqulodda vaziyatlar zonalariga kirishni cheklash to'g'risida;

favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish uchun favqulodda vaziyatlar zonalaridagi tashkilotlarni moddiy resurslaridan qonun hujjatlarida belgilangan tartibda foydalanish to'g'risida;

qutqaruvchi bo'lmagan ayrim fuqorolarni kechiktirib bo'lmaydigan qutqaruv ishlarini olib borishga ixtiyoriylik asosida jalb qilish to'g'risida;

favqulodda vaziyatlar ko'lamining kengayib borishi va ularni bartaraf etish ishlarining borishi taqozo etgan boshqa zarur choralarni ko'rish to'g'risida.

Odamlarning hayoti va sog'lig'iga bevosita tahdid bo'lgan taqdirda, favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish ishlarining rahbarlari o'zlari qabul qilgan qarorlar haqida tegishli davlat boshqaruv organlarini, mahalliy davlat xokimiyati organlarini, fuqorolarning o'zini o'zi boshqarish organlarini, tashkilotlarni darhol habardor qilish yuzasidan barcha choralarning ko'rishi shart.

Favqulodda vaziyatlarning bartaraf etish ishlarining rahbarlari, qutqaruv xizmatlari va qutqaruv tuzilmalari rahbarlari favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish ishlarini tashkil qilish uchun favqulodda vaziyatlar to'g'risida zarur bo'lgan to'liq va ishonchli axborot olish huquqiga ega.

Qutqaruv ishlarini to'liq hajmda olib borishning texnologik jihatdan imkoni bo'lmagan taqdirda, favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish ishlarining rahbarlari birinchi navbatda favqulodda vaziyatlar zonalaridagi odamlarni qutqarish bo'yicha imkoni bo'lgan barcha choralarni ko'rgach, qutqaruv ishlarini to'liq yoki qisman to'xtatib turish to'g'risida qaror qabul qilishi mumkin.